

Vazirlar Mahkamasining
2022-yil 6-iyundagi 118-son yig'ilish bayoniga
1-ilova

**“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanlovining
tuman/shaharlarda davlat tilini to‘laqonli joriy etishga qaratilgan “Davlat tili
ustuvorligi ta’minlangan eng namunali hudud” yo‘nalishini tashkil etish va
o‘tkazish tartibi to‘g‘risida**

NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 31 yilligi, “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganining 33 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan **“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanlovining** mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish, o‘zbek tilining siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda to‘laqonli joriy etilishini hamda faol qo‘llanishini ta’minlashga qaratilgan namunali ishlarni rag‘batlantirishga qaratilgan **“Davlat tilida ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan eng yaxshi tizim” yo‘nalishi** (keyingi o‘rinlarda – Tanlov)ni tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi;

1.2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 10-fevraldagi 73-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi;

1.3. Tanlovda o‘z hududida o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqib, amaliyotda faol qo‘llagan, jumladan, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat idoralari, tashkilotlar, ijtimoiy muassasalar, tadbirkorlik sub’ektlarida davlat tilining to‘laqonli joriy etilishini targ‘ib etish, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini qo‘llashni rag‘batlantirish, mehnat jamoalarida davlat tiliga hurmat-e’tibor muhitini shakllantirish, barcha millat va elatlar vakillariga davlat tilini o‘rganishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish, savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlariga o‘zbekcha nom berishni targ‘ib etishga qaratilgan ishlarni namunali yo‘lga qo‘ygan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tuman va shaharlar) idoralari qatnashadi;

1.4. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash, tashkiliy chora-tadbirlarini moliyalashtirish bilan bog‘liq barcha masalalar O‘zbek tilini rivojlantirish

jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi. Tanlovga doir chora-tadbirlarning umumiy ijrosi Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti (keyingi o'rinlarda – Departament) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi

2.1. Tanlovning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- jamiyatda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi obro'-e'tiborini oshirish;
- mehnat jamoalarida davlat tilini bilishning burch va majburiyat sifatida his etilishiga erishish;
- hududlarda davlat tilini to'laqonli joriy etish hamda barcha millat va elatlar vakillariga o'zbek tilini o'rganishlari uchun qulay shart-sharoit-yaratish;
- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tish jarayonini jadallashtirish.

III. Tanlovda ishtirok etish tartibi

3.1. Tanlovda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tavsiya etilgan bittadan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tuman va shahar) idorasi ishtirok etadi;

3.2. Oldingi yillarda g'olib bo'lganlar tanlovda ishtirok etmaydi.

IV. Tanlovning tashkiliy qo'mitasini tashkil etish tartibi

4.1. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublika tashkiliy qo'mita tarkibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

4.2. Tashkiliy qo'mita tanlovni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni boshqaradi;

4.3. Departament hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi tanlovning ijrochi tashkilotchilari hisoblanadi;

4.4. Respublika tashkiliy qo'mitasi quyidagi huquqlarga ega:

-majlis qarori bilan o'z a'zolarini tanlovni o'tkazish ishlarini tashkillashtirish uchun mas'ul sifatida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralariga birlashtirish;

-o'z a'zolaridan iborat komissiya tuzish hamda tanlovda ishtirok etishga tavsiya etilgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari faoliyatini joyiga chiqib o'rganish;

-o'rganish natijasida tavsiya etilgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari faoliyatini ushbu Nizomga muvofiqligi bo'yicha tegishli qaror qabul qilish.

V. Tanlovning vazifalari

5.1. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

-mehnat jamoalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishni targ'ib etish;

-hududlarda idora va tashkilotlar nomlari (peshlavhalar), joy nomlari, reklama e'lonlari, savdo, xizmat ko'rsatish obyektlari nomlari, yo'l (manzil) va jamoat transportlari ko'rsatkichlari matnining davlat tilida xatosiz yozilishiga erishish;

-hududiy ommaviy axborot vositalarining lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tishini ta'minlash;

-savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini o'zbekcha nomda ro'yxatga olishni rag'batlantirish;

-mehnat jamoalaridagi turli millat va elatlar vakillarining davlat tilini o'rganishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;

-ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilarning davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishni targ'ib etishga qaratilgan faoliyatini rag'batlantirish;

-davlat tilining to'laqonli joriy etilishini ta'minlashda yuqori natijalarga erishgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralarining ushbu yo'nalishdagi yutuq va muvaffaqiyatlarini ommalashtirish.

VI. Tanlovni o'tkazish bosqichlari va muddatlari

6.1. Birinchi bosqich (1-iyuldan 1-sentabrgacha)da Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tuzilgan Ishchi guruh mahalliy ijro hokimiyati (tuman/shahar) organlari faoliyatini joyiga chiqib o'rgangan holda, tanlovning Respublika bosqichiga tavsiya etadi;

6.2. Ikkinchi bosqich (1-30-sentabrgacha)da tavsiya etilgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tuman/shahar) organlari faoliyati Respublika tashkiliy qo'mitasi tomonidan o'rganiladi;

6.3. Uchinchi bosqich (10-oktabrgacha)da tanlov g'oliblari aniqlanadi;

6.4. Tanlov har yili o'tkaziladi va g'oliblar 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni arafasida e'lon qilinadi.

VII. Tanlov g'oliblarini aniqlash va taqdirlash

7.1. Tanlov g'oliblari ushbu Nizomga ilova qilingan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralarida davlat tilining to'laqonli joriy etilishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat natijalarini baholash bo'yicha Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK) ro'yxatiga binoan aniqlanadi;

7.2. EMSK bo'yicha ishtirokchilar orasidan eng yuqori natijaga ega uchta o'rin (1-, 2-, 3-o'rinlar) aniqlanadi;

7.3. EMSK bo'yicha natijalari teng kelib qolgan tanlov ishtirokchilari Respublika tashkiliy qo'mitasi Ekspertlar kengashida ovozga qo'yish yo'li bilan aniqlanadi;

7.4. Tanlov natijalari va g'oliblarning ro'yxati tanlovning rasmiy sayti hamda axborot hamkorlari hisoblangan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi;

7.5. Tanlovni tashkil etish va g'oliblarni taqdirlash O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan amalga oshiriladi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Departament ushbu Nizomga muvofiq tanlovga tavsiya etilgan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tuman/shahar) organlarining davlat tilini to'laqonli joriy etish sohasidagi faoliyati va tegishli hujjatlari xolis ko'rib chiqilishi uchun bevosita mas'uldir;

8.2. Ushbu Nizom talablari asosida g'oliblarga berilgan yutuqlar qiymati amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti deb hisoblanadi;

8.3. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir.

“Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” Respublika tanlovining
 “Davlat tili ustuvorligi ta’minlangan eng namunali hudud”
 yo‘nalishini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
 Nizomga ilova

**Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralarida davlat tilining to‘laqonli joriy etilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyat
 natijalarini baholash bo‘yicha eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari**

RO‘YXATI

№	Ustuvor vazifalar	Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (EMSK) hisoblash uchun taqdim etiladigan ma’lumot	Baholash mezonlari	Ma’lumot taqdim etish davriyligi	Maqsadli ko‘rsatkich o‘rnatish mezonlari	Ma’lumot taqdim etuvchi tashkilot
1.	Davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish	Idora va tashkilotlar nomlari (peshlavhalar)ning davlat tilida xatosiz yozilganligi	Ball	O‘rganish davriga qadar bo‘lgan oxirgi chorak	Tashkiliy qo‘mita xulosasi	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
2.		Joy nomlari, reklama e’lonlari, savdo, xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlarining davlat tilida xatosiz yozilganligi	Ball	O‘rganish davriga qadar bo‘lgan oxirgi chorak	Tashkiliy qo‘mita xulosasi	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
3.		Yo‘l (manzil) va jamoat transportlari ko‘rsatkichlari matnining davlat tilida xatosiz yozilganligi	Ball	O‘rganish davriga qadar bo‘lgan oxirgi chorak	Tashkiliy qo‘mita xulosasi	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari

4.		Savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarining o'zbekcha nom bilan ro'yxatga olinganligi	%	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Savdo, ishlab chiqarish, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari soniga nisbatan	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
5.	Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tish	Hududiy web-saytlar (va boshqa axborot resurslari)ning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tganligi	%	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Hududiy veb-saytlar (va boshqa axborot resurslari) soniga nisbatan	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
6.		Hududiy bosma ommaviy axborot vositalarining lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tganligi	%	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Hududiy bosma ommaviy axborot vositalari soniga nisbatan	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
7.	Davlat tilini o'rganishga sharoit yaratish	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralarida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa millat va elat vakillarining o'zbek tilini o'rganishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi	%	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Xodimlar soniga nisbatan	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
8.	Davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari	Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilarning davlat tilining nufuzi va mavqeini oshirish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish masalalari bo'yicha markaziy nashrlarda chiqishlari	Soni	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Tashkiliy qo'mita xulosasi	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari

9.		<p>Tilshunos professor-o'qituvchilar, yozuvchi-shoirlar ishtirokida hududdagi davlat idoralari, tashkilotlar, ijtimoiy muassasalar, tadbirkorlik subyektlarida davlat tilining ahamiyati, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishidan ko'zlangan maqsadni targ'ib etuvchi ma'rifiy uchrashuvlar o'tkazilganligi</p>	Ball	O'rganish davriga qadar bo'lgan oxirgi chorak	Tashkiliy qo'mita xulosasi	Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat (tumanlar va shaharlar) idoralari
----	--	--	------	---	----------------------------	---